
**Yuqori sinf o'quvchilarining
kasbiy kompetentligini xalqaro
ijtimoiy standartlar orqali
rivojlantirish**

**Axmadaliyeva Xosiyatposhsho
Abduxayotovna**
xosiyatposhshoaxmadaliyeva@gmail.com
PhD, dotsent,
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi

- Annotatsiya** *Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda xalqaro ijtimoiy standartlarning o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim mazmuni nafaqat milliy ehtiyojlarga, balki xalqaro me'yorlarga mos bo'lishi zarur. UNESCO, OECD, ESCO, ILO kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyalar tizimi o'quvchilarda kasbiy tayyorgarlik, kommunikativ madaniyat, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, raqamli savodxonlik, mehnat bozoriga moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotda o'quv dasturlariga xalqaro standartlarni integratsiya qilishning afzalliklari, metodik yondashuvlari va amaliy mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy o'quvchi profiliga mos ravishda kompetensiyalarni baholashning xalqaro talablar asosidagi mezonlari ko'rib chiqiladi. Maqola yuqori sinf o'quvchilarida kasbiy yo'nalganlikni mustahkamlash, ularni kelajak kasblariga tayyorlash, mehnat bozori talablarini tushunish hamda global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni taklif etadi. Xalqaro standartlar asosidagi kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, o'quvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, maqolada kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyihaviy faoliyat, kommunikativ topshiriqlar, STEAM yondashuvi va raqamli platformalardan foydalanishning samaradorligi bo'yicha qo'shimcha dalillar keltirilib, xalqaro standartlar yoshlarni ijtimoiy hayotga, kasbiy muhitga va global mehnat bozoriga tayyorlashda integrativ mexanizm sifatida baholanadi.*
- Kalit so'zlar** *Kasbiy kompetentlik, xalqaro ijtimoiy standartlar, yuqori sinf o'quvchilari, raqamli savodxonlik, global fuqarolik, mehnat bozori, kompetensiyalar tizimi, integratsiya*

**Развитие профессиональной
компетентности
старшеклассников на основе
международных социальных
стандартов**

Ахмадалиева Хосиятпошшо Абдухаётовна
xosiyatposhshoaxmadaliyeva@gmail.com
PhD, доцент,
Академия банковского дела и финансов
Республики Узбекистан

- Аннотация** *В данной статье анализируется роль международных социальных стандартов в формировании и развитии профессиональной компетентности старшеклассников. В условиях глобализации содержание образования должно учитывать не только национальные, но и международные требования. Системы компетенций, разработанные такими организациями, как UNESCO, OECD, ESCO и ILO, направлены на*

развитие у учащихся профессиональной подготовки, коммуникативной культуры, критического мышления, сотрудничества, цифровой грамотности и адаптивности к рынку труда. В исследовании раскрываются преимущества, методические подходы и практические механизмы интеграции международных стандартов в учебные программы. Также рассматриваются современные критерии оценки компетенций учащихся в соответствии с международными моделями. Статья предлагает научно-практические рекомендации по укреплению профессиональной ориентации школьников, их подготовке к будущим профессиям, пониманию требований рынка труда и формированию глобальных гражданских компетенций. Компетентностный подход, основанный на международных стандартах, способствует повышению качества образования и обеспечивает конкурентоспособность учащихся в современных социальных условиях. Дополнительно в статье подчеркивается значение инновационных педагогических технологий, проектной деятельности, цифровых образовательных платформ и STEAM-подхода, которые усиливают формирование ключевых компетенций. Автор отмечает, что международные стандарты служат инструментом гармонизации школьного образования с мировыми тенденциями, способствуя социальной мобильности, профессиональной зрелости и успешной интеграции молодежи в глобальное пространство труда.

**Ключевые
слова**

Профессиональная компетентность, международные социальные стандарты, старшеклассники, цифровая грамотность, глобальное гражданство, рынок труда, система компетенций, интеграция

**Developing Professional
Competence of Senior School
Students through International
Social Standards****Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna**xosiyatposhshoaxmadaliyeva@gmail.com

PhD, Associate Professor,

Banking and finance academy of the Republic
of Uzbekistan**Annotation**

This article examines the role of international social standards in developing the professional competence of senior school students. In the context of globalization, educational content must align not only with national priorities but also with internationally recognized frameworks. Competency models designed by UNESCO, OECD, ESCO, and ILO aim to enhance students' professional readiness, communication culture, critical thinking, collaboration skills, digital literacy, and adaptability to labor market demands. The study highlights the advantages, methodological approaches, and practical mechanisms for integrating these international standards into school curricula. It also examines assessment criteria for evaluating students' competencies in accordance with global benchmarks. The article provides scientific and practical recommendations for strengthening students' career orientation, preparing them for future professions, understanding labor market expectations, and fostering global citizenship skills. A competency-based approach informed by international standards contributes to improving educational

quality and ensuring students' competitiveness in rapidly changing socio-economic conditions. Furthermore, the article emphasizes the value of innovative pedagogical technologies, project-based learning, STEAM approaches, communicative tasks, and digital learning platforms in enhancing key competencies. It is argued that international standards act as an integrative mechanism that helps students develop social adaptability, professional maturity, cross-cultural awareness, and readiness for participation in the global workforce.

Keywords

Professional competence, international social standards, senior school students, digital literacy, global citizenship, labor market, competency framework, integration

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb pedagogik masalalardan biridir. Dunyo miqyosida ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi yoshlarning kasbiy tayyorgarligi, mehnat ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuv qobiliyatiga yuqori talab qo'ymoqda. Bu jarayonda xalqaro ijtimoiy standartlar ta'lim sifatini oshirish, kompetensiyalarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish, o'quvchilarni global mehnat bozoriga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

UNESCO, OECD, ILO, ESCO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyalar modeli o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, jamoada ishlash, kommunikativ savodxonlik, raqamli madaniyat, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik va mas'uliyat kabi sifatlarni kiritadi. Ushbu standartlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida umumiy o'rta ta'lim mazmuni va baholash tizimlarini modernizatsiya qilishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv dasturlarini yangilash, kasbiy yo'nalish berish, fanlararo integratsiya, soft va hard skills ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan,

"Yangi O'zbekiston maktabi" konsepsiyasi, umumiy o'rta ta'lim davlat standarti (2021), raqamli ta'lim platformalarining joriy etilishi xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirishga yo'naltirilgan.

Yuqori sinf o'quvchilari uchun kasbiy kompetentlikning shakllanishi nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy faoliyat, tajriba orttirish, mustaqil qaror qabul qilish va real ijtimoiy-madaniy sharoitda o'zini sinab ko'rishni ham nazarda tutadi. Xalqaro ijtimoiy standartlarning o'quv jarayoniga integratsiyasi ta'lim mazmunini tizimli ravishda boyitadi, o'quvchilarning global fuqarolik ko'nikmalarini rivojlantiradi, bandlik bozorida talab etiladigan professionallikni kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda XXI asr ko'nikmalariga asoslangan ta'lim modeli yetakchi yondashuv sifatida qaraladi. UNESCO (2020) ta'kidlaganidek, kompetensiyalar integratsiyasi o'quvchilarni global dunyoda raqobatbardosh qilishning eng muhim vositasidir. OECD (2019) esa "Future of Education and Skills 2030" hisobotida kasbiy kompetentlikni inson kapitali rivojining tayanch elementi sifatida belgilaydi.

Anderson (2018) o'quvchilarda kasbiy tayyorlikni rivojlantirishda kommunikativ savodxonlik, kreativlik va moslashuvchanlikning o'рни kuchayib borayotganini qayd etadi. Ryan va Deci (2017) tomonidan taklif etilgan motivatsion

nazariyalarga ko'ra, o'quvchilarning kasbga yo'naltirilgan o'quvi ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va o'zini o'zi rivojlantirishga undaydi.

Hattie (2021) kompetensiyaga asoslangan baholashni o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va o'quvga bo'lgan mas'uliyatini oshiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi. ESCO (2022) tizimi esa mehnat bozoriga mos kasbiy kompetensiyalarni raqamlashtirilgan tasnif asosida belgilaydi.

Rossiya, Qozog'iston, Belarus kabi davlatlarda kompetensiyaviy ta'lim modeli faol tatbiq etilmoqda. Smirnova (2016) kompetensiyalarni shakllantirishda fanlararo integratsiya va loyihaviy ta'lim metodlarining samaradorligini ta'kidlaydi.

Qozog'istonda Karymbayeva (2019) kasbiy kompetentlikni "modern maktab" konsepsiyasi asosida shakllantirish pedagogik yondashuvlarini o'rganadi. Unga ko'ra, ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi va kasbiy yo'nalishning erta bosqichda shakllanishi o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

Belarus olimi Kravchenko (2020) kompetensiyaviy baholashning zamonaviy mezonlarini ishlab chiqib, o'quvchilarning kognitiv va sotsial kompetensiyalarini integral o'lchashni taklif qiladi. Umuman, MDH olimlari kompetensiyalarni shakllantirishda xalqaro standartlar bilan uyg'unlikda milliy modelni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlashadi.

O'zbekistonda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim standartlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Abduqodirova (2021) ta'limda kasbiy kompetentlikni shakllantirishni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni yechish va mehnat madaniyati bilan bog'laydi.

Qodirova (2022) yuqori sinflarda kasbiy yo'nalish berishning psixologik-pedagogik asoslarini o'rgangan bo'lib, o'quvchilarni xalqaro mehnat bozori talablariga mos tayyorlashni zamonaviy ta'limning ustuvor vazifasi sifatida baholaydi.

Yangi O'zbekiston ta'lim islohotlari doirasida raqamli kompetensiya (Raxmonov, 2023), ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar (Shodmonova, 2022), mehnatga yo'naltirilgan ta'lim (Karimova, 2020) kabi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro ijtimoiy standartlar o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishda metodik asos bo'lib, ta'lim tizimining global integratsiyasini kuchaytiradi.

Tahlil va muhokamalar

Xalqaro ijtimoiy standartlar yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha samaradorlik ko'rsatadi: bilimga asoslangan kompetensiyalar, amaliy ko'nikmalar, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, mehnat bozoriga moslashuvchanlik.

Kompetensiya turi	Ta'rifi	Xalqaro manba	O'quvchiga ta'siri
Raqamli kompetensiya	Texnologiyadan samarali foydalanish	OECD (2020)	AKTdan foydalanish, onlayn ta'limga moslashish
Tanqidiy fikrlash	Axborotni tahlil qilish, baholash	UNESCO (2019)	Mustaqil qaror qabul qilish
Kommunikativ ko'nikma	Og'zaki va yozma muloqot	ILO (2021)	Kasbiy muloqotga tayyorgarlik
Hamkorlik	Jamoadi ishlash qobiliyati	ESCO (2022)	Loyiha ishlarida faol ishtirok

1-jadval. Xalqaro standartlar asosida shakllanadigan asosiy kompetensiyalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarni real hayotdagi kasbiy vazifalarga tayyorlashga xizmat qiladi. O'quvchilar individual faoliyatdan ko'ra hamkorlik, muammolarni hal etish, kreativ fikrlash kabi universal kompetensiyalarni egallaydi.

Dunyo ta'lim tizimlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar xalqaro ijtimoiy standartlar bilan uyg'unlashgan holda shakllanmoqda. Turli mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning bilimlarini kuchaytirish bilan birga, ularni real hayotga tayyorlash, kasbiy muammolarni hal etish va mehnat bozoridagi raqobatga moslashish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Quyida Finlyandiya, Koreya, Germaniya va Singapur kabi yetakchi davlatlarning tajribasi keng ko'lamda yoritiladi.

Finlyandiya ta'lim modeli kompetensiyaviy yondashuvning eng muvaffaqiyatli namunalaridan biri sifatida dunyoga mashhur. Bu mamlakatda umumiy o'rta ta'lim mazmuni "phenomenon-based learning" – hodisa asosidagi o'qitish tamoyiliga tayangan holda tashkil etiladi. Ya'ni o'quvchilar an'anaviy predmet chegaralaridan tashqariga chiqib, real hayotdagi biror muammoni kompleks tarzda o'rganadilar. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaydi, loyiha asosida izlanadi, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik yoki texnologik masalalarga amaliy yechimlar ishlab chiqadi.

Finlyandiya tajribasining muhim jihatlaridan biri – o'quvchilarni baholash jarayonida raqamli portfoliolar, reflektiv kundaliklar, ko'nikmalar xaritalari va o'zaro baholash usullaridan foydalanishdir. Bu esa o'quvchilarni o'z o'quv faoliyatini boshqarishga, mustaqil fikrlashga, kasbiy maqsadlarni belgilashga va o'zini baholashga o'rgatadi.

Shuningdek, Finlyandiya o'quv dasturlarida o'qituvchi roli "bilim beruvchi"dan ko'ra "yo'naltiruvchi mentor" sifatida talqin

qilinadi. Natijada o'quvchilar tashabbuskorlik, mas'uliyat, kreativlik, hamkorlik va kommunikativ savodxonlik kabi universal kompetensiyalarni chuqur egallaydi.

Koreya Respublikasi ta'lim tizimida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda raqamli savodxonlik markaziy o'rinni egallaydi. Mamlakatning "Smart Education" strategiyasi o'quvchilarni yoshligidan boshlab IT sohasida puxta tayyorlashga qaratilgan. Maktablarda robototexnika, sun'iy intellekt asoslari, koding, media savodxonlik, kibermadaniyat kabi modullar majburiy yoki qo'shimcha kurs sifatida o'tiladi.

Koreya tajribasining afzalligi shundaki, o'quvchilar o'quv jarayonida bir nechta raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar va simulyatorlardan foydalanadi. Bu kasbiy ko'nikmalarni egallashni tezlashtiradi va amaliyot bilan bog'laydi.

Koreyada kasbiy yo'naltirish tizimi ham yaxshi yo'lga qo'yilgan: har bir o'quvchi "Career Passport" deb nomlangan raqamli hujjat yuritadi. Unda o'quvchining yutuqlari, loyihalari, sertifikatlari va kasbiy qiziqishlari aks etadi. Bu hujjat kelajakda universitetga kirishda yoki ishga joylashishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, koreyalik o'quvchilar nafaqat akademik bilimlarga, balki mehnat bozorida talab qilinadigan texnik kompetensiyalarga ham ega bo'lib yetishadilar.

Germaniyaning dual ta'lim tizimi kasbiy kompetentlikni shakllantirishda dunyoda eng samarali model sifatida tan olingan. Ushbu tizim "50/50 tamoyili"ga asoslanadi: o'quvchilar vaqtining yarmi maktabda nazariy bilim olishga, yarmi esa korxona yoki ishlab chiqarish maskanlarida amaliyot o'tashga sarflanadi.

Bu yondashuvning eng katta ustunligi – o'quvchi real mehnat muhiti bilan erta tanishadi. U ishlab chiqarish jarayonlarini ko'radi, jamoada ishlaydi, tajribali ustozlardan o'rganadi, kasbga tegishli texnik jihozlar bilan amalda ishlaydi.

Germaniyada kompaniyalar ta'lim jarayonida bevosita ishtirok etadi, ya'ni ular

o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, amaliy mashg'ulotlar sifatini nazorat qilishda va o'quvchilarni baholashda hamkorlik qiladi. Natijada bitiruvchilarning bandlik darajasi juda yuqori bo'ladi.

Bu model "o'rganish orqali qilish" tamoyiliga asoslangan bo'lib, kasbiy kompetentlikni eng tabiiy tarzda shakllantiradi.

Singapur zamonaviy ta'lim islohotlarida kompetensiyaviy yondashuvning eng ilg'or modellaridan birini yaratgan. "SkillsFuture" dasturi mamlakatda butun umr davomida o'qish madaniyatini shakllantirish, yoshlarni maxsus ko'nikmalar bilan qurollantirish va mehnat bozoriga moslashtirishga qaratilgan.

O'quvchilar maktabning o'zida kasbiy yo'nalish bo'yicha modul va kurslarni tanlaydi. Dastur nazariy bilimdan ko'ra amaliy ko'nikmalarga urg'u beradi. "Career guidance counsellor"lar yordamida o'quvchilar o'z qiziqishlariga mos kasbiy yo'nalishni tanlaydi, o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlari muntazam monitoring qilinadi.

Singapurda baholash tizimi ham xalqaro standartlarga asoslanadi: o'quvchining kompetensiyasi faqat testlar orqali emas, balki portfoliolar, loyihalar, amaliy vazifalar, kommunikativ topshiriqlar, jamoaviy ishlar orqali baholanadi. Bu kompetensiyalarni real hayot bilan bog'lashga yordam beradi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetentlikni xalqaro standartlar asosida shakllantirish o'quvchilarning:

- raqobatbardoshligini;
- moslashuvchanligini;
- kasbiy ko'nikmalarini;
- ijtimoiy faolligini;
- raqamli savodxonligini;

- mustaqil fikrlash va muammo yechish qobiliyatini sezilarli oshiradi.

Finlyandiya, Koreya, Germaniya va Singapur tajribalari O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham samarali namunalar bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda xalqaro ijtimoiy standartlarni integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil ekanini ko'rsatdi. UNESCO, OECD, ILO, ESCO kabi tashkilotlar tomonidan taklif etilgan kompetensiyalar modeli o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro yondashuvlarning ta'lim mazmuniga joriy etilishi o'quvchilarni global mehnat bozori talablariga tayyorlaydi, kasbiy madaniyatni shakllantiradi hamda raqamli iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Xorijiy, MDH va O'zbekiston ta'lim tizimlari tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan kompetensiyaviy model ta'limning sifatini oshiradi, o'quvchilarda amaliy va ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Dunyo tajribasiga tayangan holda, kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion o'qitish metodlari, loyihaviy faoliyat, STEAM yondashuvi, raqamli platformalardan foydalanish ayni muddao ekanini ko'rish mumkin.

Shu bois, xalqaro ijtimoiy standartlarga asoslangan kompetensiyalarni o'quv jarayoniga izchil tatbiq etish O'zbekiston ta'lim tizimida yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi va ularni kelajak kasblariga muvaffaqiyatli tayyorlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, M. (2018). *Competency-based learning in secondary education*. New York: Springer.
2. ESCO. (2022). *European skills, competencies and occupations classification*. Brussels: EU Commission.

3. Hattie, J. (2021). *Visible learning and assessment*. London: Routledge.
4. ILO. (2021). *Skills for the future workforce*. Geneva: ILO Publications.
5. OECD. (2019). *Future of education and skills 2030*. Paris: OECD Publishing.
6. Ryan, R., & Deci, E. (2017). *Self-determination theory in education*. New York: Guilford Press.
7. UNESCO. (2020). *Global competencies for quality education*. Paris: UNESCO.
8. Abduqodirova, G. (2021). *O'quvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari*. Toshkent: Fan.
9. Karimova, M. (2020). *Mehnatga yo'naltirilgan ta'lim metodikasi*. Buxoro: Akademnashr.
10. Qodirova, D. (2022). *Kasbiy yo'nalishning psixologik-pedagogik asoslari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
11. Raxmonov, A. (2023). *Raqamli kompetensiyani rivojlantirish metodlari*. Toshkent: Innovatsiya.
12. Shodmonova, S. (2022). *Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari*. Samarqand: Ziyo.